



MOTURIDIY AQIDAVIY MEROSINING HOZIRGI DAVRDAGI AHAMIYATI VA ASH'ARIYA TA'LIMOTI BILAN QIYOSIY TAHLILI

O'rozdavlatov Samandar Alisherovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,

tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: dots. Norbo'tayev I.M. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Mansur al-Moturidiy (vaf. 333/944) tomonidan asos solingan moturidiylik kalom maktabining shakllanish tarixi, asosiy aqidaviy prinsiplari va hozirgi globallashuv davridagi ahamiyati keng tahlil qilinadi. Moturidiylik va ash'ariylik o'rtasidagi fundamental farqlar — xususan, imonning ta'rifi, uning ko'payishi yoki kamayishi masalasi, imonda istisno (istitno), imon va islomning munosabati kabi muhim aqidaviy masalalar qiyosiy metod asosida o'rganiladi. Tadqiqot Yangi O'zbekiston sharoitida moturidiy merosini tiklash va yoshlarda ma'naviy immunitetni shakllantirish borasidagi davlat siyosati kontekstida olib borilgan.

Kalit so'zlar: moturidiylik, ash'ariylik, kalom ilmi, imon, aqida, Movarounnahr, ratsionalizm, ma'naviy immunitet, diniy bag'rikenglik.

Asosiy qism

Islom sivilizatsiyasining boy intellektual merosi bugungi kunda yangicha nazar va metodologik yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, moturidiylik kalom maktabining tarixiy-falsafiy tahlili milliy o'zlikni anglash va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash nuqtai nazaridan katta ahamiyat kasb etadi. IX–X asrlarda Movarounnahrda shakllangan bu ta'limot nafaqat o'sha davr aqidaviy munozaralarida muhim o'rin tutgan, balki bugun ham globallashuv va mafkuraviy ta'sirlardan himoya qiluvchi ma'naviy qalqon sifatida dolzarb ahamiyatini saqlab kelmoqda.^[1]

2020-yil 11-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4802-son qarori qabul qilinishi moturidiy merosini o'rganishda yangi bosqichning boshlanganidan dalolat beradi.^[2] Ushbu tadbirlar doirasida mazkur maqolada moturidiylik ta'limotining asosiy aqidaviy pozitsiyalari ash'ariylik bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafi al-Moturidiy as-Samarqandiy — moturidiylik kalom maktabining asoschisi sifatida islom ilohiyot tafakkuri tarixida alohida o'rin egallaydi. Allomaning taxminiy tavallud sanasi hijriy 238 (milodiy 870) yilga to'g'ri keladi.^[3] Doktor Muhammad Ayyub Alining tadqiqotlarida bu xulosa ustoz-shogird zanjiri tahlili orqali asoslangan: Moturidiyning ustozlari Muhammad ibn Mukotil ar-Roziy (vaf. 862 m.) va Nasr ibn Yahyo al-Balxiy (vaf. 898 m.) bo'lganiga ko'ra, u zot IX asrning ikkinchi yarmida ilmiy kamolotga yetgan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Alloma 333/944-yili vafot etgan va Samarqandning Chokardiza qabristoniga — "Saba'atun va arba'u miata Muhammad" (To'rt yuz etti Muhammad ismli olim) dafn etilgan muqaddas maskanga ko'milgan.^[4] Hayoti haqida dastlabki manbalarda juda oz ma'lumot saqlanib qolgan bo'lsa-da, Rudolf Ulrixning zamonaviy tadqiqotlari asosida Samarqand ilmiy maktabining o'ziga xos avtonom tabiatini aniqlash mumkin bo'ldi.

Moturidiy yashagan davr: Somoniylar saltanati va intellektual muhit


Moturidiy yashagan IX–X asrlar Movarounnahrda Somoniylar sulolasining oltin davri edi. Somoniylar davlati hijriy 261 (875 m.) yildan to'liq mustaqillikni qo'lga kiritib, 389/999 yilgacha faoliyat yuritdi.^[5] Bu davrda Samarqand va Buxoro "Islom olamining gumbazi" (Qubbatul Islom) maqomiga ko'tarildi. Ibn al-Asirning "Al-Komil" asarida Somoniylar davlati adolatparvarlik va ma'rifatparvarlikda tasvirlangani bejiz emas.^[6] Ibn Xallikonning ta'kidlashicha, Somoniy hukmdorlari ulamolarni o'zlariga eng yaqin maslahatchi qilib olganlar, bu esa "Sulton va Olim" ittifoqini mustahkamlashga xizmat qilgan.^[7] Aynan shu ijtimoiy-siyosiy muhit Moturidiyga mo'taziliylar, karromiylar, murjiylar va daxriy qarashlarga qarshi asosli raddiyalar yozish imkonini berdi. Mashhur turk olimi Toshkubrozodaning ta'kidlashicha: "Ahli-sunna val-jamo'a"da kalom ilmi raislari ikki kishi bo'lib, biri Hanafiy Abu Mansur al-Moturidiy, ikkinchisi esa Shofi'iy Abu-l-Hasan Ash'ariydir.

Moturidiy asarlari mavzu jihatidan uch yo'nalishda tasniflanadi: tafsir, kalom ilmi va aqida bo'yicha risolalar. Allomaning "Ta'vilot al-ahli sunna" ("Ta'vilot al-Qur'on") tafsiri to'liq holda bizgacha yetib kelgan yirik ilmiy merosdir.^[8] Asarning qismlari 1391-hijriy yilida Qohira shahrida Ibrohim Avzin va Sayid Avzin tomonidan tadqiq qilingan. Kalom ilmiga oid asarlarining eng muhimi "Kitob at-tavhid" bo'lib, u moturidiylik aqidasi tanishtiruvchi asosiy manbaga aylangan. Bundan tashqari, usul al-fiqhga oid "Ma'haz ash-shari'a" va "Al-Jadal" asarlari ham allomaning serqirra ilmiy merosidan guvohlik beradi.^[9]

Abu-l-Hasan Ali ibn Ismoil Ash'ariy Basra shahrida hijriy 260 (milodiy 873) yili tavallud topgan. U qirq yoshgacha mashhur mu'tazila mutakallimi Jubboiyning shogirdi sifatida faoliyat yuritgan va mu'taziliya ta'limotiga e'tiqod qilgan.^[10] Ash'ariy ustoziga muammoli savollar berish orqali mu'taziliya tizimining nomuvofiqliklarini anglagan va nihoyat, bu ta'limotdan butunlay voz kechib, "Ahli-sunna val-jamo'a" yo'lini tanlagan. Ash'ariy Basradan Bag'dodga ko'chib o'tib, umrining oxirigacha u yerda faoliyat yuritgan. "Az-Zanch" qo'zg'oloni va Karmatiylarning tarqalishi kabi murakkab siyosiy vaziyatda ham ilmiy faoliyatini davom ettirgan bu olim kalom ilmini mustahkam qoidaviy asosga qo'yishga erishdi.^[11] Ash'ariyning shogirdlari haqida "Tabaqot ash-Shofe'iya al-Kubro" asari muallifi as-Subkiy keng ma'lumot bergan.

Moturidiylik va Ash'ariylik: asosiy aqidaviy farqlar

Moturidiylik va ash'ariylik o'rtasidagi eng fundamental farqlardan biri imonning mohiyati va ta'rifiga oid masaladir. Moturidiya ta'limotining ko'pchilik ulamolari imonni qalb bilan tasdiq (qalb bilan ishonish) deb ta'riflaydi. Ba'zilar esa imon qalb bilan tasdiq





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

va til bilan iqrор etishdan iborat, degan fikrni ilgari suradi.^[12] Abul Mu'in an-Nasafiy bu masalada shunday deydi: "Imon tilshunoslar nazdida tasdiqlashdan boshqa ma'noda emas. Kim bu so'zni tasdiqlashdan boshqa ma'noda ishlatsa lug'atdagi bir ma'nodagi tushunarli ismni tushunarsiz shaklga solgan bo'ladi."^[13] Shu asosda moturidiylar imonning mohiyati qalb bilan tasdiqdan iborat ekanligi, amallar esa imonning rukniga kirmasligini ta'kidlaydilar.

Ash'ariylik ta'limotida esa imon ma'rifat (Allohni bilish) sifatida ta'riflanadi. Imom G'azzoliy imon arkonlari to'rt rukndan — Allohni ma'rifat, uning sifatlari, fe'llari va samiyat (eshitilgan narsalar) dan iborat ekanligini uqtirgan.^[14] Bu ta'rif nuqtai nazaridan ikki maktab orasidagi farq asosan aqidaviy metodologiyaga emas, balki terminologik ustuvorliklariga borib taqaladi deb baholash mumkin.

Ushbu masalada ikki maktab orasidagi farq yaqqol namoyon bo'ladi. Moturidiylik ta'limotiga ko'ra, imon tasdiqdan iborat bo'lib, tasdiqda ko'payish yoki kamayish bo'lmaydi. Al-Hakim al-Moturidiy as-Samarqandiy bu haqda shunday degan: "Imon ziyoda va nuqsonli bo'lmaydi. Kim imon ziyoda yoki kam bo'ldi desa u bid'atchi bo'ladi. Chunki, ziyodalik va nuqson amallarda bo'ladi."^[15] Ash'ariylik va Shofe'iy mazhabida esa imon ko'payadi va kamayadi degan qarash ustuvor. Imom Shofe'iy: "Imon so'z va kamayib ko'payuvchi amaldir", — degan. Ular Qur'on oyatlarini, xususan Anfol surasi 2-oyatdagi "imonlari ziyoda bo'ladigan" iborasini bunga dalil sifatida keltirishadi.^[16] "Sharhul maqosid" kitobi muallifi esa ortish deganda bardavomlik, mustahkamlik va miqdorda ziyodalashuvni nazarda tutish mumkinligini ta'kidlaydi.

"Men Inshoollo mo'minman" deyish joizmi yoki yo'qmi — bu masala moturidiylar, ash'ariylar, murji'iyalar va salafiyalar o'rtasida keskin bahs mavzusiga aylangan. Moturidiya ta'limotiga ko'ra imonda istisno qilish joiz emas, chunki bu imonning haqiqatida shak ekanligini bildiradi.^[17]

Moturidiy o'zi bu haqda shunday degan: "Bizning asl qoida imonda istisno qilmaslikdir. Zeroki to'liq imonni ma'nosi istisno qilinsa durust bo'lmaydi." Abul Mu'in an-Nasafiy ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlab: "Imon tasdiqning ismidir. Tasdiq esa xad belgilangan haqiqatdir. Bu xadning bor ekan shuning o'zi bilan mo'min hisoblanadi", — degan.^[18] Ash'ariylik va salafiylik yo'nalishi esa imonda istisnoni maqbul, hatto ba'zan vojib deb hisoblaydi.

Moturidiya ta'limotida imon va islom bir narsa, ular o'zaro bir-biridan ajralmas, degan xulosaga kelingan. Moturidiy va uning izdoshlari bu fikrga Qur'on oyatlaridan bir nechta dalil keltirishgan: Oli Imron surasi 19-oyati ("Alloh nazdida maqbul bo'ladigan din faqat islom dinidir") va boshqalar.^[19]

Abul Mu'in an-Nasafiy shunday savol qo'yadi: "Insonlar Rasululloh (s.a.v.) davrlarida mo'minlar, kofirlar va munofiqlar edi. To'rtinchi toifa mavjud emas ekan, musulmonlar qaerda edilar?" — deb so'rab, imon va islomning bir mohiyatga ega ekanligini isbotlaydi.^[20] Ash'ariylik va salafiylik yo'nalishida esa ayrim olimlar imon va islom





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o'rtasida farq bor, deb hisoblashadi: birgalikda kelganda islom zohiriy amallar, imon esa botiniy tasdiqlashni anglatadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida moturidiy merosini tiklash

Mustaqillik yillarida, ayniqsa Yangi O'zbekiston bosqichida moturidiy merosiga davlat darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4802-son qarori asosida Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilishi bu sohada muhim qadam bo'ldi.^[2] 2020-yilning 3–5-mart kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan "Imom Abu Mansur Moturidiy va moturidiylik ta'limoti: o'tmish va bugun" mavzusidagi xalqaro konferensiyada ta'kidlanganidek: "Imom Moturidiy bobomizning 'Kitob at-tavhid' asari nafaqat islom aqidasi tartibga solgan, balki insoniyatni yuksak axloq va aql-idrokka chorlagan o'lmas merosdir."^[1]

Moturidiylikning muhim o'ziga xosligi shundaki, u Qur'on va hadis naqlidan tashqari aql (ratsional tafakkur) ga ham keng o'rin beradi. "Husn va qubh" (yaxshilik va yomonlikni aql bilan farqlash) konsepsiyasi bu ta'limotning metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu ratsionalistik yondashuv moturidiylikni dogmatik va takfirchi oqimlarga nisbatan tubdan farqli qiladi.^[21]

S.Rustamovning tadqiqotlarida moturidiylikning zamonaviy diniy-falsafiy baxslardagi o'rni alohida tahlil qilinib, bu ta'limotning ekstremistik oqimlarning dogmatik qarashlariga qarshi ilmiy asos sifatida xizmat qilishi asoslab berilgan.^[22] R.Zohidovning ilmiy ishlarida esa Moturidiy kalom maktabining Markaziy Osiyodagi nufuzi va uning hozirgi zamonga qoldirilgan ta'siri batafsil tadqiq etilgan.^[23]

Bugungi kunda mafkuraviy ziddiyatlar va yot g'oyalar kuchaygan sharoitda moturidiylik ta'limotining insonparvarlik mohiyati, diniy bag'rikenglik tamoyillari va mantiqqa tayangan metodologiyasi yoshlar uchun ma'naviy qalqon vazifasini o'tashi mumkin. E.Muhammadiyevning tadqiqotlarida moturidiylikdagi mo'tadillik va aqidaviy asoslar ekstremizmga qarshi kurashda nazariy poydevor bo'lib xizmat qilishi uqtirilgan.^[24] N.To'yehiyevaning dissertatsiya tadqiqotida moturidiy ta'limotining ijtimoiy-falsafiy mohiyati o'rganilib, bu ta'limotning jamiyatda barqarorlik va totuvlikni ta'minlashdagi funksional ahamiyati ko'rsatib berilgan.^[25] O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi 2021-yil 5-iyuldagi O'RQ-699-son Qonuni ham moturidiylik ruhidagi bag'rikenglik tamoyillarini qonuniy asosda mustahkamlaydi.

Xulosa

Amalga oshirilgan qiyosiy tahlil natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, moturidiylik kalom maktabi IX–X asrlarda Movarounnahrning o'ziga xos intellektual muhitida shakllanib, hanafiylik aqidaviy an'analari ratsionalistik metodologiya bilan uyadish yo'lini tutgan. Bu esa uni dogmatik va takfirchi oqimlardan tubdan farqli qiladi.

Ikkinchidan, moturidiylik va ash'ariylik o'rtasida imonning ta'rifi (tasdiq yoki ma'rifat), uning ko'payib-kamayishi, imonda istisno va imon bilan islomning munosabati kabi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

masalalarda sezilarli farqlar mavjud. Biroq bu farqlar bir-birini kufr bilan ayblamasdan, ikki maktab ham "Ahli sunna val-jamoa" doirasida e'tirof etilgan.

Uchinchidan, moturidiylikning "aql va naql" muvozanatiga asoslangan metodologiyasi zamonaviy globallashuv davridagi mafkuraviy tahdidlarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qila oladi.

To'rtinchidan, Yangi O'zbekistonda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilishi va bir qator davlat dasturlari qabul qilinishi bu merosni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Izohlar

¹ Imom Moturidiy va moturidiylik ta'limoti xalqaro anjumani materiallari. – Samarqand, 2020. URL: <https://iiau.uz/uz/news/1138>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4802-son qarori, 11.08.2020.

³ Doktor Ahmad ibn Avzulloh al-Xarbiy. Al-Moturidiya: Dirasatan va taqviman. – Ar-Riyod: Dar as-Samiy, 2000. – B. 95.

⁴ Abu-l-Mu'in an-Nasafiy. Tabsiratu-l-adilla fiy usuli-d-din. – Qohira, 1990. – B. 222.

⁵ Mualliflar jamoasi. Mavsuoat al-Muyassara. – Bayrut: Darul-kutubil ilmiyya, 2005. 5-j. – B. 99.

⁶ Ibn al-Asir al-Jazariy. Al-Komil fit-tarix. – Qohira: Dorul-Maorif, 1982. 7-jild. – B. 45.

⁷ Ibn Xallikon. Vafoyot al-a'yon va anbau abnaiz-zaman. – Bayrut, 1972. 3-jild. – B. 87.

⁸ Imom al-Moturidiy. Ta'vilot ahl as-sunna. Majdiy Basallum tahriri. – Bayrut: Darul-kutubil ilmiyya, 2005. 10 jildli.

⁹ Rudolf Ulrix. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyati. – Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. – B. 143.

¹⁰ Ashariy Abul Hasan Ali ibn Ismoil. Ibana an-Usuli-d-diyana. Abbos Sabboh nashrga tayyorlagan. – Bayrut: Doru-n-Nafois, 1994. – B. 11–12.

¹¹ Abu-l-Mu'in an-Nasafiy. Bahrul kalom. – Ar-Riyod: Vizarat ash-shuun al-islamiya val-avqof, 2000. – B. 129.

¹² Doktor Ahmad ibn Avzulloh al-Xarbiy. Al-Moturidiya. – Ar-Riyod: Dar as-Samiy, 2000. – B. 455.

¹³ Abul Mu'in an-Nasafiy. Tabsiratul adilla. – Bayrut: Darul-kutubil ilmiyya, 1982. – B. 802.

¹⁴ Imom Abi Homid ibn Muhammad al-G'azzoliy. Ih'yo ulumid-din. – Qohira: Dor al-misr littiba'a, 1997. – B. 15.

¹⁵ Al-Xarbiy. Al-Moturidiya. – B. 459.

¹⁶ Ahmad ibn Muhammad Shokir. Sharh tahoviya fil aqida as-salafiya. – Ar-Riyod: Maktabul ma'rifa, 1982. – B. 11.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- ¹⁷ Abu Azba Hasan ibn Abdulmuhsin. Ar-Ravzatu-l-bahiya fima bayna-l-asha'ira va-l-moturidiya. – Bayrut: Dor. sabili-l-irshod, 1996. – B. 28.
- ¹⁸ Abul Mu'in an-Nasafiy. Bahrul kalom. – B. 86.
- ¹⁹ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjima va tafsiri. – T.: Toshkent islom universiteti, 2007. – B. 37.
- ²⁰ Nasafiy. Tabsiruta-l-adilla. – B. 820.
- ²¹ Okilov S. Abul-l-Mu'in an-Nasafiy ilmiy merosi va moturudiya ta'limoti. – T.: Muharrir, 2008. – 181 b.
- ²² Rustamov S. Moturidiylik va zamonaviy diniy-falsafiy bahslar. – Toshkent, 2019.
- ²³ Zohidov R. Imom Moturidiyning kalom maktabi va uning Markaziy Osiyodagi nufuzi. – Samarqand, 2021.
- ²⁴ Muhammadiev E. Islomda mo'tadillik va aqidaviy asoslar. – Toshkent, 2018.
- ²⁵ To'ychiyeva N. Moturidiya ta'limotining ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Avtoref. diss... kand. ist. nauk. – Toshkent, 2011.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Manbalar:

1. Abu Mansur al-Moturidiy. Kitob at-tavhid. Bekir Topalog'lu va Muhammad Aruch tahriri. – Anqara: ISAM, 2003.
2. Imom al-Moturidiy. Ta'vilot ahl as-sunna. Majdiy Basallum tahriri. – Bayrut: Darul-kutubil ilmiyya, 2005. 10 jildli.
3. Ashariy Abul Hasan Ali ibn Ismoil. Ibana an-Usuli-d-diyana. – Bayrut: Doru-n-Nafis, 1994. – 110 b.
4. Abul Mu'in an-Nasafiy. Tabsiratul adilla. – Bayrut: Darul-kutubil ilmiyya, 1982. – 890 b.
5. Abul Mu'in an-Nasafiy. Bahrul kalom. – Ar-Riyod: Vizarat ash-shuun al-islamiya val-avqof, 2000. – 190 b.
6. Doktor Ahmad ibn Avzulloh al-Xarbiy. Al-Moturidiya. – Ar-Riyod: Dar as-Samiy, 2000. – 200 b.
7. Imom al-G'azzoliy. Ih'yo ulumid-din. – Qohira: Dor al-misr littiba'a, 1997. – 270 b.
8. Ibn al-Asir al-Jazariy. Al-Komil fit-tarix. 7-jild. – Qohira: Dorul-Maorif, 1982.
9. Ibn Xallikon. Vafoyot al-a'yon va anbau abnaiz-zaman. 3-jild. – Bayrut, 1972.

II. Ilmiy tadqiqotlar:

10. Rudolf Ulrix. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyati. – Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. – 203 b.
11. Okilov S. Abul-l-Mu'in an-Nasafiy ilmiy merosi va moturudiya ta'limoti. – T.: Muharrir, 2008. – 181 b.
12. Muhammadiev E. Islomda mo'tadillik va aqidaviy asoslar. – Toshkent, 2018.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

13. To'ychiyeva N. Moturidiya ta'limotining ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Avtoref. diss... kand. ist. nauk. – Toshkent, 2011.
14. Rustamov S. Moturidiylik va zamonaviy diniy-falsafiy bahslar. – Toshkent, 2019.
15. Zohidov R. Imom Moturidiyning kalom maktabi va uning Markaziy Osiyodagi nufuzi. – Samarqand, 2021.
16. Uvatov U. Imom Moturidiy merosining mohiyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 16 b.
17. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2007. – 618 b.

III. Rasmiy hujjatlar:

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4802-son qarori, 11.08.2020.
19. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'RQ-699-son Qonuni, 05.07.2021.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori, 26.03.2021.

